

**Abdulgʻayev Elyorbek Kaxramonjon oʻgʻli**  
Andijon davlat texnika instituti  
tillar va gumanitar fanlar kafedrası assistenti  
[elyorbekabdulgʻayev0708@gmail.com](mailto:elyorbekabdulgʻayev0708@gmail.com).

## **XIX ASR OXIRI – XX ASR BIRINCHI YARMIDA TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI: GʻOYAVIY EVOLYUTSIYA VA QATAGʻON FOJEASI (ARXIV HUJJATLARI TAHLILI)**

**Annotatsiya.** Maqolada XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Turkiston oʻlkasining ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy uygʻonish harakatini bosh boʻgʻini boʻlgan jadidlar faoliyati, ularning gʻoyaviy evolyutsiyasi hamda chor Rossiyasi maxfiy xizmatlari (qoʻriqlash boʻlimi) tomonidan taʼqib qilinishi masalalari tadqiq etilgan. Izlanish doirasida ilk bor Turkiston tuman qoʻriqlash boʻlimining 1916–1917-yillarga oid maxfiy kuzatuv kundaliklari (F. I-461, op. 1) ilmiy muomalaga kiritildi. Arxiv hujjatlarida “Panislomistlar” tamgʻasi ostida kuzatilgan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mustafó Choʻkayev, Ubaydulla Xoʻjayev kabi millat yetakchilarining operativ taxalluslari, ularning harakat trayektoriyalari, uchrashuvlari va oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti chuqur tahlil qilingan. Shoʻro davridagi yirik qatagʻonlarning tamal toshi aynan chorizm davri maxfiy politsiyasi tomonidan qoʻyilganligi gʻoyasi arxiv materiallari orqali isbotlab berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Jadidchilik, Turkiston, qatagʻon siyosati, qoʻriqlash boʻlimi, fiylor kundaligi, panislomizm, Munavvar Qori, Mustafó Choʻkayev, Ubaydulla Xoʻjayev, “Mocheniy”, “Izdatel”, “Krugliy”.

## **ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX – ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА: ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ И ТРАГЕДИЯ РЕПРЕССИЙ (Анализ архивных документов)**

**Аннотация.** В данной статье исследуется деятельность джадидов, являвшихся главным звеном социально-политического и просветительского пробуждения в Туркестанском крае в конце XIX – первой половине XX веков, а также эволюция их идей и вопросы их преследования со стороны спецслужб (охранного отделения) царской России. В рамках исследования впервые в научный оборот вводятся дневники наружного (секретного) наблюдения Туркестанского районного охранного отделения за 1916–1917 годы (Ф. II-461, оп. 1). На основе архивных документов глубоко проанализированы оперативные псевдонимы, траектории передвижения, встречи и общественно-политическая деятельность таких лидеров нации, как Мунаввар Кары Абдурашидханов, Мустафа Чокаев, Ubaydulla Ходжаев, находившихся под секретным надзором под клеймом «панисламистов». С опорой на архивные материалы обоснован тезис о том, что фундамент масштабных репрессий советского периода был заложен именно тайной полицией царизма.

**Ключевые слова:** Джадидизм, Туркестан, репрессивная политика, охранное отделение, дневник филёра, панисламизм, Мунаввар Кары, Мустафа Чокаев, Ubaydulla Ходжаев, «Мочёный», «Издатель», «Круглый».

## **THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN IN THE LATE 19th AND FIRST HALF OF THE 20th CENTURIES: IDEOLOGICAL EVOLUTION AND THE TRAGEDY OF REPRESSION (An Analysis of Archival Documents)**

**Abstract.** This article examines the activities of the Jadids, who constituted the core of the socio-political and educational revival in the Turkestan region in the late 19th and first half of the

20th centuries, alongside the evolution of their ideology and their surveillance by the secret services (the Okhrana / Protection Section) of Imperial Russia. Within the scope of this study, the secret surveillance diaries of the Turkestan District Protection Section covering the years 1916–1917 (Fond I-461, Inventory 1) are introduced into scientific circulation for the first time. Based on archival documents, the paper provides a profound analysis of the operational aliases, movement trajectories, meetings, and the socio-political environment surrounding national leaders such as Munawwar Qari Abdurashidkhanov, Mustafa Chokay, and Ubaydulla Khojayev, who were monitored under the label of “Pan-Islamists”. Utilizing archival materials, the study substantiates the thesis that the foundational mechanisms of the mass Soviet-era repressions were originally established by the tsarist secret police.

**Keywords:** Jadidism, Turkestan, policy of repression, Protection Section (Okhrana), filer's diary, Pan-Islamism, Munawwar Qari, Mustafa Chokayev, Ubaydulla Khojayev, “Mocheniye”, “Izdatel”, “Krugliy”.

Kirish (Introduction). XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmi Turkiston tarixida tub burilishlar, ijtimoiy-siyosiy uygʻonishlar va ayni paytda misli koʻrilmagan insoniy fojialar davri sifatida muhrlandi. Rossiya imperiyasining mustamlaka asoratiga qarshi oʻlkada shakllangan eng qudratli intellektual va maʼrifiy kuch — bu jadidchilik harakati edi. Dastlab usuli jadid maktablari, teatr, matbuot va nashriyot ishlari orqali xalqni maʼrifatlantirishni maqsad qilgan ushbu harakat vakillari tez fursatda milliy ozodlik va muxtoriyat gʻoyalarini ilgari suruvchi siyosiy kuchga aylandi. Aynan shu omil tufayli jadid ziyolilari ham chor Rossiyasi maʼmuriyati, ham keyinchalik uning vorisi boʻlgan sovet mustabid tuzumi uchun eng xavfli siyosiy dushman sifatida koʻrildi.

“Tarixshunoslikda jadidlar faoliyati va ularning qatagʻon qilinishi fojiasini oʻrganish boʻyicha salmoqli ishlar qilingan boʻlsa-da, inqilobdan oldingi chor maxfiy politsiyasi (oxranka) agentlarining operativ-qidiruv hujjatlari, kundaliklari va filyor (kuzatuvchi) hisobotlarining tizimli tahlili hamon dolzarbligicha qolmoqda” [1; 120-145-b]. “Mustamlaka tuzumining milliy ziyolilarni nazorat qilish mexanizmlarini chuqur oʻrganish, sovet davri qatagʻonlarining gʻoyaviy ildizlari qachondan boshlanganini aniqlash imkonini beradi” [2; 54-58-c].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Oʻzbekiston Milliy arxivining F. I-461-fondiga tegishli maxfiy hujjatlar va “Tashqi kuzatuv kundaliklari” tahlili orqali Turkistondagi jadid yetakchilarining 1916–1917-yillardagi yashirin faoliyati, ularning oʻzaro aloqalari, ijtimoiy tarkibi hamda imperiya xavfsizlik tizimining ularga nisbatan qoʻllagan taktikalari va qatagʻon mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Metodlar (Methods) va Adabiyotlar tahlili (Literature Review) . Ushbu ilmiy maqola fundamental tarixiy tahlil metodlariga tayanadi. Tadqiqotda tarixiy-qiyyosiy (komparativ), xronologik, manbashunoslik tahlili, tizimli yondashuv hamda operativ maʼlumotlarni interpretatsiya qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy empirik bazasini Turkiston tuman qoʻriqlash boʻlimining 1916-yil iyun oyidan boshlab yuritilgan «Panislomistlar» boʻyicha tashqi kuzatuv kundaligi materiallari tashkil etadi. Mazkur hujjatlar Oʻzbekiston Milliy arxivi (OʻzMA) fondlarida F. I-461 (Turkiston tuman qoʻriqlash boʻlimi), 1-roʻyxat, 1787-ish raqamlari ostida saqlanmoqda.

Metodologik jihatdan arxiv hujjatlaridagi maxfiy agentlar (filyorlar: Svistunov, Shishkin, Xaritonov, Rappoport va boshqalar) tomonidan qayd etilgan subʼektiv operativ maʼlumotlar tarixiy reallik va oʻsha davr ijtimoiy-siyosiy konteksti bilan qiyoslandi. Hujjatlarda qoʻllanilgan operativ taxalluslar (kod nomlari) ortida turgan tarixiy shaxslarning kimligi ularning yoshi, faoliyat turi, kiyinishi va yashash manzillari tavsifiga asoslanib identifikatsiya qilindi.

Tarixshunoslikda jadidlar faoliyati va ularning qatagʻon qilinishi fojiasini oʻrganish boʻyicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, akademik D.A. Alimova oʻz tadqiqotlarida jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy ildizlarini fundamental jihatdan ochib bergan. Jadidizm gʻoyalarining oʻlkadagi evolyutsiyasi va uning mafkuraviy asoslari B.H. Ergashev tomonidan atroflicha tahlil qilingan boʻlib, u ijtimoiy fikr yuksalishida matbuotning oʻrnini yuqori baholaydi. Shuningdek, Turkiston ziyolilarining milliy davlatchilik

68 sari intilishlari va bu yoʻldagi fojiali qismati Q. Rajabovning tarixiy ocherklarida muhim faktlar asosida koʻrsatib oʻtilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, shu paytgacha tadqiqotlarda jadidchilik harakati asosan maorif, matbuot va mafkura nuqtai nazaridan oʻrganilgan. Biroq, chor Rossiyasi maxfiy politsiyasining (oxranka) bevosita operativ-qidiruv materiallari, tashqi kuzatuv kundaliklari hamda maxfiy xizmat agentlarining (filyorlarning) kundalik hisobotlari tarixshunoslikda tizimli manba sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan. Turkiston tuman qoʻriqlash boʻlimi tomonidan yuritilgan ushbu kundaliklar oddiy statistik maʼlumotlar emas, balki millat yetakchilarining kunlik harakat trayektoriyasini, yashirin uchrashuvlarini, ularning oʻzaro ijtimoiy-siyosiy aloqalar tarmogʻini daqiqasigacha muhrlagan birlamchi va oʻta noyob hujjatli manba hisoblanadi. Mazkur arxiv materiallarining oʻrganilishi chor politsiyasi yuritgan kuzatuv mexanizmlarini va ularning keyinchalik sovet qatagʻonlariga poydevor boʻlib xizmat qilgan yashirin zanjirlarini ochib berishda fundamental ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari (Results). OʻzMA F. I-461, roʻyxat 1, 1787-ish hujjatlarini tahlil qilish jarayonida Turkiston qoʻriqlash boʻlimi tomonidan jadid ziyolilariga qarshi keng koʻlamli operativ-qidiruv ishlari olib borilganligi va ular tizimli ravishda "Panislomistlar" degan umumiy siyosiy ayblov bilan kuzatilganligi aniqlandi. Arxiv materiallariga koʻra, chor maxfiy politsiyasi kuzatuv ostidagi shaxslarga maxfiy operativ taxalluslar (laqablar) bergan.

Biz tadqiq etayotgan 1-varoq hujjatlarida qayd etilishicha, filyorlar tomonidan Jizzax va Oʻra-tepa koʻchalarida istiqomat qiluvchi millat fidoyilari alohida nazoratga olingan. Agentlar kundalikda jadid yetakchilarining tashqi koʻrinishi va kiyinish uslublarini oʻta aniqlik bilan tasvirlaydilar. Chunonchi, harakat rahnamosi Munavvar Qori Abdurashidxonovga nisbatan "«Mocheniy»" qoʻllanilgan boʻlib, uning tavsifi: "45 yoshlarda, boʻyi oʻrtacha, gavdasi baquvvat, qora sochli (bryunet), moʻylovi kaltalangan, soqoli olingan, kiyimi forsha, qora qoʻzi choʻpon (qorakoʻl) telpakda. Kostyum kiyadi, pensne (koʻzoynak) taqadi" [3; 1-v] deya ifodalangan. Nashriyot ishlari bilan shugʻullangan Nabixonov esa "Nashriyotchi" ostida kuzatilgan va u "45–47 yoshlarda, boʻyi oʻrtacha, gavdasi toʻladan kelgan, qoramagʻiz, biroz sargʻish tusli kichik moʻylovi bor. Kiyimi: oq shlyapa, oq pidjak, qora shim" [4; 1-v] deb koʻrsatiladi. Shuningdek, maʼrifatparvar guruh aʼzolaridan yana biri "Gazetachi" nomi bilan filyorlik kundaligiga tushgan boʻlib, u "36 yoshda, boʻyi oʻrtachadan baland, gavdasi oʻrtacha, qoramagʻiz, moʻylovi olingan, soqoli tarashlangan. Kiyimi: jigarrang shlyapa, oq pidjak, qora shim" [5; 1-v] koʻrinishida bayon etilgan.

7-iyun sanasidagi qaydlarda maxfiy xizmat xodimlari quyidagi operativ harakatlarni qayd etishgan: "Kunduzi soat 17:15 da «Mocheniy» «Gazetachi» bilan birga oʻz xonadoniga qaytib keldi. Kechki soat 18:35 da «Mocheniy», «Nashriyotchi» va «Gazetachi» tashqariga chiqib, shahar dorixonasiga qadar borishdi. U yerdan tramvayga oʻtirib, eski shahar tomon yoʻl olishdi. Bozor hududida 10 daqiqa boʻlgach, Shayxontohur qismining Hovuzbek koʻchasiga oʻtishdi. 45-sonli qatronchi (degtyar) roʻparasidagi qaysidir uyga bildirmasdan kirib ketishdi" [6; 1-v]. 11-fevral kungi hisobotda esa: "Soat 10:20 da "Mocheniy" va "Gazetchik" birgalikda ikkinchi marta koʻchaga chiqishdi va "Turkestanskije Vedomosti" tahririyatiga yoʻl olishdi" [7; 1-v] deb yozilgan.

Hujjatlarning 3 va 4-varoqlarida maxfiy politsiya eʼtiborida boʻlgan yanada yirikroq shaxslar, Davlat Dumasi aʼzolari hamda huquqshunoslar nomi ochiq keltiriladi. Jizzax koʻchasidagi «National» mehmonxonasida istiqomat qilayotgan Tevkelevning qabulxonasidagi 12-avgust kungi holat haqida filyorlar shunday yozadi: "Kun davomida kuzatuv ostidagi shaxsning oldiga imzo qoʻygan 100 ga yaqin kishi keldi. Koʻpchilik mahalliy politsiya ustidan shikoyat qildi: Politsmeyster Kolesnikov ustidan, Pristav Maslov ustidan, Katta shahar amaldori Navalixin ustidan. Shuningdek, poraxoʻrlilik va turli asossiz ayblovlar (tirnoq ostidan kir qidirish) boʻyicha koʻplab shikoyatlar tushdi" [8; 3-v].

Ushbu maskanda millat yetakchilarining oʻzaro uchrashuvlari qayd etilgan: "Kuzatuv ostidagi shaxsni quyidagi musulmonlar ziyorat qildi: Zayniddin Xoʻja, shahar boshqarmasi aʼzosi; Munavvar Qori, mahalliy (tuzem) maktabi mudiri; Xodjayev Ubaydulla - Asadullayev, qasamyodli ishonchli vakil (advokat); Ubaydulla qori, Majitxon, shahar boshqarmasi ovoz

beruvchi a'zosi (glasniy) va Xodjayev Abduvait - Xo'ja Abduqodirov" [9; 3-v ]. Mustaf Cho'kayev haqida esa filyorlar: "Cho'kayev Mustaf Cho'kayevich, 26 yoshda. Munavvar Qori, «Priemniy Telyalev», Jizzax ko'chasidagi «National» mehmonxonasida yashaydi. Kunduzi soat 13:30 da kuzatilayotgan shaxs «Ma'ruzachi» bilan birga tashqariga chiqdi, aravaga o'tirib, kuzatuvsiz jo'nab ketishdi" [10; 3-v ] deb yozishgan.

Hujjatning 4-varog'ida hududiy keng ko'lamlilik aks etadi: "Ertalab soat 10:00 da kuzatuv ostidagi shaxsning oldiga to'rtta qirg'iz keldi, ularning familiyalari aniqlandi: Abil Berdi; 2) Asatov; 3) Pusurbanov (Pusurboyev); 4) Uralbayev. 10 daqiqadan so'ng ular chiqib, O'ra-tepa ko'chasidagi «Qosimov» xonalariga (mehmonxonasiga) yo'l olishdi va o'sha yerda qolishdi" [11; 4-v].

Muhokama va tahlil (Discussion). Tadqiq etilgan arxiv hujjatlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi jadidchilik harakatining tabiati haqida juda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Chor Rossiyasi ma'murlari Turkiston ziyolilarining har qanday ma'rifiy, nashriyot va huquqiy faoliyatini "Panislonizm" degan soxta siyosiy bahona ostida bo'g'ishga harakat qilgan. Jadidlar aslo diniy fanatizm bilan shug'ullanmaganlar. Ularning teatr, tahririyat va nashriyotlarga tez-tez borishi ularning sof ma'rifatparvarlik va madaniy-modernizatsiya faoliyati bilan band bo'lganini ko'rsatadi.

Davlat Dumasi a'zosi Q. Tevkelevning Toshkentga kelishi va qabulxona ochishi mahalliy aholining milliy uyg'onishiga kuchli turtki bergan. "Uning huzuriga nafaqat Toshkent ziyolilari (Munavvar Qori, Ubaydulla Xo'jayev), balki Buxoro yahudiylari (Aleksey Komendarev), Buxorolik sartlar, Chernyayev uezdi qozilari (Mavlonqul) va Qirg'izistondan kelgan Abil Berdi, Asatov kabi vakillarning tashrif buyurishi Tevkelev missiyasining umumturkistonlik miqyosga ega bo'lganini ko'rsatadi" [12; 45-62- B].

Filyor kundaliklarida aks etgan ma'lumotlar keyinchalik — 1937–1938-yillardagi sovet Katta qatag'onining dastlabki ma'lumotlar bazasi vazifasini o'tagan. Chor qo'riqlash bo'limi to'plagan maxfiy papkalar keyinchalik NKVD qo'liga o'tgan va Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mustaf Cho'kayev, Ubaydulla Xo'jayevlarni "aksilinqilobiy millatchi tashkilot a'zolari" sifatida ayblash uchun poydevor qilib tikilgan.

Xulosa (Conclusion). XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmida Turkistonda kechgan milliy uyg'onish va jadidchilik harakati mustamlaka imperiyasining doimiy politsiya nazorati va tazyiqi ostida shakllandi. O'zMA F. I-461 fondi hujjatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Chor Rossiyasi ma'murlari Turkiston ziyolilarining faoliyatini "Panislonizm" degan soxta siyosiy bahona ostida bo'g'ishga harakat qilgan va ularni davlat xavfsizligiga tahdid deb hisoblagan.

Jadid yetakchilari o'sha davrda nafaqat madaniy oqim, balki Rossiya Davlat Dumasi a'zolari bilan aloqa o'rnatib, mahalliy xalqning huquqlarini himoya qiluvchi siyosiy institut darajasiga ko'tarilgan edi.

Chor politsiyasining tashqi kuzatuv tizimi (filyorlik xizmati) to'plagan maxfiy materiallar keyinchalik sho'ro mustabid tuzumi davrida jadidlarni butunlay jismoniy yo'q qilish (qatag'on qilish) uchun tayyor ayblovlar poydevori bo'lib xizmat qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимова Д.А. Жади́дчи́лик ҳаракати: ижтимоий-сиёсий ва маърифий илдизлар. — Тошкент: Академнашр, 2017. — В. 120-145.
2. Эргашев Б.Х. "Из истории общественно-политической мысли и идеологии джадидизма в Туркестане". — Ташкент: Фан, 1991. — С. 54-78.
3. O'zbekiston Milliy arxi (O'z MA), F. I-461 (Turkiston rayon qo'riqlash bo'limi), 1-ro'yxat, 1787-ish, 1-varoq. «Mocheniy» (Munavvar Qori) ning tashqi ko'rinishi tavsifi qaydlari.
4. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 1-varoq. "Nashriyotchi" (Nabixonov) ning tashqi ko'rinishi va kiyinish tavsifi.

5. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 1-varoq.
6. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 1-varoq. Turkiston rayon qo'riqlash bo'limining 1916-yil 7-iyun oyi uchun tashqi kuzatuv kundaliki materiallari.
7. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 1-varoq. 1916-yil 11-fevral kungi filyorlar hisoboti (Tahririyatga kuzatuv qaydlari).
8. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 3-varoq. Turkiston rayon muhofaza bo'limining 1916-yil 12-avgust oyi uchun panislomizm bo'yicha tashqi kuzatuv kundaligi (Aholi shikoyatlari hisoboti).
9. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 3-varoq. Tevkelevning "Qabulxonasi"ga tashrif buyurgan milliy elita va jadid vakillari ro'yxati.
10. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 3-varoq. Mustafo Cho'kayev va Munavvar Qori ustidan yuritilgan maxfiy kuzatuv materiallari.
11. O'z MA, F. I-461, 1-ro'yxat, 1787-ish, 4-varoq. Tevkelev xonadoniga tashrif buyurgan boshqa hudud vakillari (qirg'iz/qozoqlar) haqidagi qaydlar.
12. Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти (тарихий очерк). – Тошкент: Маънавият, 2015. – Б. 45-62.